

**X-XV ASRLARDA XORAZMNING MARKAZIY OSIYODA  
SAVDO-SOTIQNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI**

*Saparova Maftuna Otabek qizi*

*UrDU ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti magistranti*

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** Ushbu maqolada Xorazm savdo markazlarining paydo bo'lishi va X-XV asrlarda Markaziy Osiyoda savdo-sotiqni rivojlantirishdagi o'rni haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Bu maqolaning alohida o'rni shundaki, Sharqninggina emas, umuman insoniyatning ilk o'choqlaridan bo'lgan Xorazmning iqtisodiy tarixi, ilk shaharlar va savdo markazlarining rivojlanishi haqida batafsil so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mizdahqon, Istaxriy, Gaurqal'a, Guldursun, Yorbakiqal'a

**Kirish.** Xalqimiz ongida juda qadimdan shakllangan va yuksak qadriyatga aylanib ketgan savdo-sotiq munosabatlari, urf-odatlar insoniyat tarixining turli davrlarida xalqimizning dunyoning eng madaniyatli, eng rivojlangan buyuk xalqlardan biriga aylanishida juda katta rol o'ynagan Buyuk Ipak yo'li tarixini, ayniqsa, savdo shaharlari tarixini o'rganishimiz ayni hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan masalalardan biridir. Bu, birinchidan, bozor munosabatlariga o'tayotgan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun juda muhimdir. Ikkinchidan, kelajakda umumbashariy jahon sivilizatsiyasining katta yo'lga tushib olib, dunyoning eng ilg'or davlatlaridan biriga aylanishga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun ham savdo munosabatlari va savdo shaharlari tarixini o'rganish katta ahamiyatga egadir. Buning ustiga, Xorazmning savdo munosabatlaridagi tutgan o'rni, uning savdo markazlari tarixi boshqa hududlarga nisbatan ancha kam o'rganilganligi ma'lumdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Xorazm savdo markazlari to'g'risidagi turli-tuman ma'lumotlar IX asrdayoq paydo bo'la boshlagan edi. Shaharlarning taraqqiy qilishda savdoning ahamiyatini sharq geograflari, tarixchi va sayyohlari ham tushunib yetganlarki, Xorazm shaharlari tavsifnomasida, albatta, bozorlar, karvonsaroylar atrofidan qanday karvon yo'llari o'tganligi haqida qayd qilib o'tganlar. O'z asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar asarlari jumlasiga Ibn Rustaning «Kitob al-aloq an-nafisa», Al-Ya'qubiyning «Kitob al-buldon» («Mamlakatlar haqida kitob»), Abubakr al-Balazuriyning «Kitob futuh al-buldon» (Mamlakatlarning zabt etilishi haqida kitob), Ibn Xordabexning «Kitob masalik ul-mamolik» («Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob»), Al-Istaxriyning «Kitob masolik ul-mamolik» («Mamlakatlarga boriladigan yo'llar haqida kitob»), Al-Mukaddasiy (Makdisiy)ning «Ahsan-at-taqosim fi ma'rifat al-akolim» («Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi

qo'llanma") , Ibn Havkalning "Kitob ul-masolik va-l-mamalik" ("Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob") , asarlari kiradiki, bu asarlar Xorazm savdo markazlari haqida ma'lumot beruvchi birinchi darajali va tengi yo'q manbalar hisoblanadi. Bular ichida Istaxriy va Muqaddasiy asarlari ayniqsa ajralib turadi. Chunki ular asarlarida Xorazm savdo markazlarining tavsifi, Xorazm iqtisodiy geografiyasi, shaharlar va qishloqlarning savdo munosabatlari, bozorlari va karvon-saroylariga katta e'tibor berilgan. Xorazmning X-XV asrlar savdo shaharlarini arxeologik tadqiqotlar yordamida batafsil o'rganish XX asrning 20-30-yillarida boshlanganligini qayd qilish kerak. Xorazm savdo shaharlarini arxeologik jihatdan o'rganish davrini 1928-1929-yillardan boshlanganligini ta'kidlash lozim. 1928-1929-yillarda xorazmshohlarning o'rta asrlardagi poytaxti Urganch (Ko'hna Urganch) atrofida va hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli shahri yaqinidagi Kofirqal'a (Gaurqal'a) xarobalari o'rnidagi o'rta asrlar yirik savdo markazi Mizdahqonda A.Yu.Yakubovskiy ekspeditsiyasi ish olib borgan. A.Yu.Yakubovskiy Urganch va Mizdahqon shaharlari topografiyasini birinchi marta ilmiy asosda yaratgan hamda bu xususda ma'lumotlar bergan edi[2].

**Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari** sifatida taniqli arxeolog, tilshunos, o'lkashunos, adabiyotshunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Arxeologiya va yozma manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm hududida shaharlar deb qabul qilingan jami 64 dan kam bo'lmagan arxeologik yodgorliklar qayd qilingan (bu yerda miloddan avvalgi IV asrdan milodning XIV asrigacha bo'lgan davr nazarda tutilgan)[4]. Ammo ulardan faqat 32 tasi haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot bor, shuningdek, bu shaharlarning 20 tasida unchalik katta bo'lmagan hajmdagi statsionar ishlar olib borilgan. Bular asosan, mamlakat chekkasidagi yodgorliklardir. Afsuski, markaziy Amudaryo bo'yi rayonlaridagi muhim shaharlar kam o'rganilgan; o'rta asr geograflari sanab o'tgan 24 shahardan faqat 20 tasi bu mualliflarning yozib qoldirgan qisqacha ma'lumotlari tufayligina ma'lumdir. Mazkur hududning qadimiy shaharlari keyingi ko'p asrlik qatlamlar ostida yashirinib qolgan[7].

Xorazm shaharlarining ko'pchiligi katta karvon yo'llarida joylashgan bo'lib, bu yo'llar Janubdan, Xurosondan, Jurjon va Movarounnahrda mamlakatning Amudaryo o'ng va so'l qirg'oqlaridagi markaziy mintaqalari orqali o'tgan. Shaharlarning bir qismi mamlakat chekkasida, mintaqaning ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi va dashtlardagi ko'chmanchilar o'zaro munosabatlarga kiradigan hududda vujudga kelgan[1]. XI-XII asrlarda voha chegaralarida qal'alarning jadal sur'atda qurilishi va yangi shaharlarning paydo bo'lishi arxeologiya nuqtayi nazaridan qayd qilingan. Buning ustiga yangi shaharlarning maydoni juda kichik. Bu shaharlar ichida (Guldursun, Qavatqal'a, Daudonqal'a, Janpiqqal'a) faqat Guldursun shahar deb

atalishga loyiq, boshqalari esa qal'alardir. Yangishahar deb atalayotgan Shaharlik manzili 15 gektar maydonga ega va istehkomlari yo'q, Yorbakirqal'a antik manzilgoh hududidagi mayda shaharcha (4,8 ga)[5]. X asrda Xorazmning iqtisodiy jihatdan nihoyatda faol bo'lganligi arab manbalarida aniq ta'kidlanadi. Xorazmlik savdogarlar, xuddi qadim zamonlardagidek, birinchidan, hozirgi Turkmaniston va G'arbiy Qozog'iston o'rnida bo'lgan dashtlar ko'chmanchilari bilan, ikkinchidan, Volga bo'yi – Xazoriya (keyinchalik Dashti Qipchoq) va Bulg'oriya bilan, nihoyat, Sharqiy Yevropadagi keng slavyanlar olami bilan savdo aloqalarida bo'ldilar. Istaxriy X asrdayoq bu yerda savdo aloqalari kengayganligi to'g'risida shunday degan: "Xorazm – hosildor, oziq-ovqati va mevalari ko'p shahar (madina), faqat yong'og'i yo'q; bu yerda paxta va jundan ko'p narsalar tayyorlanadi hamda bu narsalar uzoq-uzoq joylarga etiladi. Aholisining ajralib turadigan xususiyati – boyligi va mardlik ko'rsatishga intilishidir"[3]. Ayniqsa, al-Maqdisiy e'tiborga loyiq ma'lumotlar yozib qoldirgan. U Bulg'ordan Xorazm orqali keltirilgan mollar qatori Xorazmning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ham ko'rsatib o'tgan: "...Xorazmda uzum, mayiz ko'p, bodom mag'izi, kunjut, yo'l-yo'l kiyim-boshlar, gilamlar, ko'rpalar, ajoyib kimxob, "mulxam" degan choyshab, qulf, rangli kiyimlar, eng kuchli odamlargina ega oladigan kamonlar, alohida bir xil pishloq, zardob, baliq tayyorlanadi. U yerda kemalar yasaladi, yasalganda ham nihoyasiga yetkaziladi"[6].

XV asr davomida Xorazm asta-sekin asosiy savdo yo'llaridan chetda qola boshlagan. Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbek xonlari va sultonlari o'rtasidagi o'zaro kurashlarning avj olishi Xorazmni uzoq vaqtgacha Sharqiy Yevropa va Volgabo'yidan ajratib, savdoning to'xtab qolishiga olib kelgan. O'zaro feodal urushlar, hatto ichki savdo-sotiqqa ham to'siq bo'lgan. XVI asrga kelib, Buyuk Ipak yo'lining ham deyarli o'z faoliyatini to'xtatishi bilan Xorazm savdo shaharlari faoliyati ancha qisqarib, ilgari ahamiyatini deyarli yo'qotgan.

**Xulosa va takliflar.** O'lkamiz tarixida o'z yechimini kutayotgan sirli voqealar talaygina. Ayniqsa, dunyo fani va madaniyatining ravnaqiga, hunarmandchilik va sanoat markazlarining tarkib topishiga, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning o'rnatilishiga, hatto zamonoviy temir va avtomobil yo'llari tarmoqlarining qurilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan Buyuk Ipak yo'lining ko'pgina qirralari hanuz jumboqligicha qolmoqda. Xullas, Xorazm savdo markazlari tarixini o'rganish davomida uni umumiy Buyuk Ipak yo'li bilan o'zviy holda tadqiqotlar olib borishimiz, Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rganish davomida esa tarmoqlarga bo'lib, masalan, Xorazm savdo markazlari misolida izlanishlar olib borishimizni talab etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

[1]. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма //Вкн.: Культура и искусство древнего Хорезма. - М.: «Наука», с.219-227.

[2]. Якубовский А.Ю. Феодалное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. //Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч I. – Л.: 1932.

[3]. G‘ulomov Ya.G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. – Т.: O‘zSSR FA nashriyoti, 1959. -324 b.

[4]. Толстов С.П. Древний Хорезм. - М.: Издание МГУ, 1948. -352 с.

[5]. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. –Л.: «Наука», 1973. -389 с.

[6]. Al-Makdisi, tekst, 286-289; MITT, T.1, s. 186-188.

[7]. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. - Т,: «Fan», 1964.- 440 b.